

---

## TADBIRKORNING MUAMMOLARINI O'RGANISH VA BARTARAF ETISH DOLZARB MASALA

Bugun Rishton tumani hokimligida tadbirkorlar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda Farg'ona viloyati hokimi o'rinosbosari Nuriddin Mamajonov, tuman hokimi Bahodirjon Xoliqov, tuman prokurori Rashidbek Mehmonov, tumanda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar va boshqalar qatnashishdi.

Bevosita muloqot tarzida bo'lib o'tgan uchrashuvda tadbirkorlikni yanada rivojlantirish orqali yangi ish o'rinalarini yaratish, mahallalardagi mavjud qo'shimcha zaxira va imkoniyatlardan samarali foydalanish yuzasidan taklif va tavsiyalar berildi.

Shuningdek uchrashuv davomida tadbirkorlarni taklif va muammolari o'rganildi. Muddat talab qiladigan murojaatlar yechimini topish yuzasidan mutasaddilarga qat'iy topshiriqlar berildi.

2025-01-17 17:11:54